

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi
100% aksiyalar paketiga egalik qiluvchi yagona aksiyadori
“UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJning,
aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha
54-2025/6-sonli qarori**

Toshkent sh.
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2025-yil 30-iyun
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2025-yil 30-iyun holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya‘ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2025-yil 08-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

1. 2024-yil uchun MHXS va BHMS bo‘yicha tashqi auditor hisobotlarini ma‘lumot uchun qabul qilish.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

1. 2024-yil uchun MHXS va BHMS bo‘yicha tashqi auditor hisobotlari mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil Biznes–reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan Bosh direktor (Jamiyat) yillik hisobotini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

2. 2024-yil Biznes–reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan Bosh direktor (Jamiyat) yillik hisoboti mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2024-yil uchun Jamiyat sof foydasini taqsimlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

3. Kuzatuv kengashining 2025-yil 23-iyundagi 82-sonli majlisi tavsiyasiga muvofiq Jamiyatning 2024-yil uchun jami 154,248,332,000.00 so‘m sof foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

- Sof foydadan 62,500,000,000.00 so‘m (sof foydaning 40,52 foizi) Jamiyatning joylashtirilgan oddiy aksiyalari uchun dividend sifatida yagona aksiyadorga pul mablag‘lari ko‘rinishida to‘lansin. Bunda har bir oddiy aksiya uchun dividend miqdori 0.4469 so‘mni tashkil etadi;

- Sof foydaning qolgan 91,748,332,000.00 so‘mi (sof foydaning 59,48 foizi) Jamiyatning taqsimlanmagan foydasi tarkibida qoldirilsin;

- Dividend to‘lashni boshlash sanasi etib 2025-yil 30-iyun va dividend to‘lashni tugash sanasi sifatida 2025-yil 29-avgust belgilansin.

4. 2024-yil uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

4. 2024-yil uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi hisoboti mazkur qarorning 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jamiyat Bosh direktorini tayinlash.**Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

5. Jamiyat Bosh direktori etib Saidazim Mirkamalovich Gulyamov 1 yil muddatga tayinlansin (Kuzatuv kengashining 2025-yil 23-iyundagi 82-son qarori bilan oldindan rozilik berilgan).

6. Jamiyatning 2025-yil uchun Biznes-rejasini tasdiqlash.**Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):**


6. Jamiyatning 2025-yil uchun Biznes-rejasi mazkur qarorning 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin (Kuzatuv kengashining 2025-yil 19-fevraldagi 81-son qarori bilan oldindan rozilik berilgan).

7. Jamiyatning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.**Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

7. Jamiyatning yangi tashkiliy tuzilmasi mazkur qarorning 5-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin (Kuzatuv kengashining 2025-yil 19-fevraldagi 81-son qarori bilan oldindan rozilik berilgan).

Ushbu qaror 2025-yil 08-iyul kuni imzolandi.

**“UzAuto Passenger Vehicles
Management” MChJ nomidan
Bosh direktor**



B.B.Axunov

